

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.2712.Ped.11.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ERGASHEVA GULNOZ XAYDAROVNA

**ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY ETIKET ME'YORLARINI
SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (O'zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

UO‘K: 37.091.12:005.963

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Ergasheva Gulnoz Xaydarovna Ona tili darslarida nutqiy etiket me‘yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish	5
Эргашева Гулноз Хайдаровна Совершенствование методики формирования норм речевого этикета на уроках родного языка	24
Ergasheva Gulnoz Xaydarovna Improving the methodology for developing speech etiquette norms in native language lessons	46
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	50

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.11.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ERGASHEVA GULNOZ XAYDAROVNA

**ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY ETIKET ME'YORLARINI
SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (O'zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Ped11058 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qarshi davlat universiteti veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qosimova Gavxar Islomovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Oripova Nodima Xalilovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,
Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,

Yetakchi tashkilot:

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.11.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahar, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (99875) 221-21-04; faks: (99875) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz) Qarshi davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti 3-qavat, 310-xona

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (99875) 221-21-04; faks: (75) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____kuni tarqatildi.
(2026- yil “___” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

R.D.Shodiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi,
p.f.d., professor

I.B.Kamolov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi,
p.f.d., professor

Sh.U.Nurullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida nutqiy muloqot, nutqning ijtimoiy ahamiyati, uning vazifalari, nutq odobi, uning nutqiy muloqotdagi o‘rni kabi muammolarga juda ko‘p e‘tibor qaratilgan. Jumladan, YUNESKO ning “Tillarning ahamiyati: ko‘p tilli ta‘lim bo‘yicha global ko‘rsatmalar” dasturida nutqiy muloqot, nutqning ijtimoiy ahamiyati dolzarb ekani ta‘kidlanadi hamda bu boradagi tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar ochiladi.¹ Tilshunoslarning shaxslararo verbal muloqot va odamlarning bir-biri bilan o‘zaro muloqoti muammolariga qiziqishlarining tobora ortib borayotgani sababli nutqiy kompetentlikni o‘stirishga qaratilgan lug‘atlarni zamonaviy lingvistik paradigmalarda ko‘zguvida o‘rganish, antropotsentrik leksikografiyaning innovatsion leksikografik analari hamda zamonaviy ta‘lim oluvchi talablaridan kelib chiqib takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Dunyoda ma‘lumki, o‘quv lug‘atlar o‘rganilayotgan til materialini taqdim qilish bilan birga ushbu materialni qanday taqdim qilish kerak degan savolga ham javob beradi, til leksik birliklari va ularning ma‘nolari haqidagi retseptiv bilimlarni ham, o‘zlashtirilgan mazkur bilimlarni amalda qo‘llay bilish ko‘nikmasi – reproduktiv bilimlarni ham qamrab oladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi davrida o‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzini oshirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ona tilining boy imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini o‘stirishga xizmat qiluvchi amaliy tadqiqotlarga keng yo‘l ochdi. Jumladan, “Ta‘lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish”² yo‘nalishida o‘zbek amaliy tilshunosligi oldiga muhim ijtimoiy buyurtma – zamonaviy, yangi avlod o‘quv lug‘atlarini yaratish vazifasi qo‘yildi. Shu ma‘noda nutqiy etiket birliklarining o‘quv lug‘atlarda berish mezonlarini yoritib berish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud. O‘zbek tilida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar – affikslar, leksik birliklar, turg‘un birikmalarni tilshunoslikning zamonaviy paradigmalari ko‘zguvida o‘rganish va muloqot madaniyatini shakllantirishning zaruriy vositalaridan bo‘lgan nutqiy etiketlar o‘quv izohli lug‘atini tuzishning lingvistik, pedagogik va psixologik mezonlarini aniqlash, etiketlar o‘quv izohli lug‘ati uchun so‘zlikni shakllantirish va leksikografik talqin qilish masalalariga bag‘ishlanganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-80-sonli 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni,

¹ Incheon Declaration and SDG4 – Education 2030 Framework for Action. 33-p

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-sonli “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishida innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida etiketning dialogik nutq bilan bog‘liq holdagi ijtimoiy mohiyati haqida X.Doniyorov va B.Yo‘ldoshevning “Adabiy til va badiiy stil” asarida so‘z yuritilgan bo‘lsa, S.Mo‘minov, H.Turdiyeva, Sh.Iskandarovalarning ilmiy tadqiqotlarida murojaat shakli muloqot odobi va barqaror nutq odatlari bo‘yicha tahlil qilingan. H.Hojiyevaning “O‘zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida hurmat maydoni vositalari struktur va semantik-funksional jihatdan tahlil qilgan bo‘lsa, S.Mo‘minovning “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” nomli tadqiqotida muloqot xulqi muammosining nazariy masalalari, psixolingvistik aspektlari, hudud va jins jihatdan xoslanishlar kabi masalalari xususida to‘xtalgan. Biroq tadqiqotimiz davomida ona tili darslarida talabalarni nutqiy etiket me‘yorlarini shakllantirish metodikasiga oid ilmiy tadqiqot ishlarini uchratmadik.

MDH mamlakatlarida nutqiy etiket masalasi T.V.Larina, Y.A.Romanova, Y.A.Rudneva, R.Ratmayr, N.Formanovskaya kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan. Xususan, I.A. Romanova va T.V.Larinalarning ishlari nisbatan mukammal ekanligi bilan e‘tiborimizni tortdi. I.A.Romanova o‘zining (Nutqiy muloqot madaniyati: etika, pragmatika, psixologiya) nomli ilmiy lug‘at kitobida “nutq etiketi muayyan madaniyatda o‘rnatilgan formulalar va munosabat qoidalari doirasidagi nutq xushmuomalaligi bilan ifodalanadi” - deb ta‘kidlaydi. T.V.Larinaning Muloyimlik kategoriyasi va muloqot uslubi: Ingliz va rus lingvomadaniy an‘analarning chog‘ishtirma tadqiqi nomli ilmiy asarida rus xalqiga xos etiket haqida fikr yuritadi.

Xorijiy davlatlarda “Nutqiy etiket” ya‘ni “Politeness” ilmiy atama sifatida g‘arb tilshunosligida qo‘llanila boshlangan va alohida soha sifatida shakllangan. Bu sohadagi tadqiqotlar L.Robin, G.Lich, P.Braun, B.Fraser, S.Levinson, A.J.Anderson, S.Ide, B.Hill, Y.Matsumoto, A.Viyerzbika va boshqalar tomonidan olib borilgan. Xususan, Britaniya tilshunosi G.Lich ingliz madaniyatiga asoslanib nutqiy etiketning 6 ta prinsip asosida o‘rgangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy-tadqiqot rejalari asosida 2020-2023 yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172-raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ona tili darslarida nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarining nutqiy etiket munosabatlarni shakllantirish va muloqot madaniyatiga o'rgatishning muhim vositalaridan biri bo'lgan nutqiy etiketlar o'quv izohli lug'atining tuzish tamoyillarini aniqlash;

talabalarda etiket konsepti va uning o'zbek muloqot madaniyati tarixida tutgan o'rnini yoritish hamda nutqiy birliklarni semantik jihatdan tasnif qilish asosida nutqiy etiket bildiruvchi vositalari tarkibini takomillashtirish;

ona tili darslarida nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish;

talabalarda nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirishda nutqiy etiketlar o'quv lug'atida qo'yiladigan talablarni aniqlash va nutqiy etiket talqinidagi muammolarini bartaraf etish orqali rivojlantirish.

Tadqiqotning obyektini ona tili darslarida talabalarining nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti. Ona tili darslarida nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakli, metodi, vositalari.

Tadqiqotning usullari. Ona tili darslarida talabalarining nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish asosida talabalarining nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish jarayonini kuzatish, tasniflash, qiyoslash, diskursiv, distributiv, komponent tahlil, funksional-semantik, kontekstual-funksional tahlil, talabalar bilan suhbat qilish; talabalar va o'qituvchilardan so'rovnomalar o'tkazish, o'tkazilgan pedagogik tadqiqotning tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va ularning samaradorligini matematik statistika metodlari orqali baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining nutqiy etiket munosabatlarni shakllantirish va muloqot madaniyatiga o'rgatishning muhim vositalaridan biri bo'lgan nutqiy etiketlar o'quv izohli lug'atini tuzishning lingvodidaktik tamoyillari orqali aniqlangan;

ona tili darslarida etiket konsepti va uning o'zbek muloqot madaniyati tarixida tutgan o'rnini yoritish nutqiy etiket ifodalovchi birliklarni semantik jihatdan tasnif qilish asosida nutqiy etiket bildiruvchi vositalarning struktur-grammatik tarkibi takomillashtirilgan;

ona tili darslarida nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasining nutqiy etiketlar o'quv lug'ati korpusi va so'zlikni tanlash mezonlarini komponentlarini rivojlantirish orqali takomillashtirilgan.

talabalarda nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish nutqiy etiketlar o'quv lug'atida izoh va illyustratsiyaga qo'yiladigan talablarni aniqlash orqali nutqiy etiketni

ifodalovchi vositalarning leksikografik talqini muammolarini bartaraf qilish asosida rivojlantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ona tili darslarida nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan;

bakalavr ta'lim yo'nalishlari uchun "Ta'lim texnologiyalari" nomli darslik nashr etilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

ona tili darslarida nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ona tili darslarida nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish va takomillashtirishga oid metodik qo'llanma nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. OAK tomonidan tavsiya etilgan respublika va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, mahalliy va xalqaro ilmiy konferensiya materiallari, ilmiy-metodik takliflarni amaliyotga tatbiq etilganligi va foydalanganligi, nashr etilgan maqolalar va nashr etilgan darsliklarni bakalavr ta'lim yo'nalishlarida o'qitishda foydalanilayotganligi, tadqiqotda qo'llanilgan talabalarning ona tili darslarida nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risidagi nazariy ma'lumotlarining rasmiy manbalardan olinganligi, keltirib o'tilgan tahlillar tajriba-sinov ishlarining matematik-statistika metodi bo'yicha tahlil qilinganligi, takliflar, tavsiyalar, va xulosalarni amaliyotga joriy etilganligiga doir ma'lumotlarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, talabalarning ona tili darslarida nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasi takomillashtirilgan bo'lib, ilmiy-tadqiqot rejalari loyihalarini bajarishda qo'llanilganligi va talabalarning nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish ta'limi metodikasi orqali amalga oshirib nazariy olingan bilimlarni ona tili darslarida tatbiq etishning metodik yo'llari ko'rsatib berilganligi va ona tili ta'limini ish jarayoni va amaliyotga yo'naltirishga doir taklif va tavsiyalarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ona tili darslarida nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish (Ona tili fani misolida) mavzusiga doir takliflar asosida:

ona tili darslarida talabalarning nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish hamda etiket konseptining o'zbek muloqot madaniyati tarixida tutgan o'rnini yoritish va nutqiy etiket ifodalovchi birliklarni semantik jihatdan tasnif qilish asosida nutqiy etiket bildiruvchi vositalarning struktur-grammatik tarkibini aniqlash orqali rivojlantirishga doir xulosalaridan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy-tadqiqot rejalari asosida 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172-raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektorining 2025-yil 21-noyabrdagi 04/1-5588-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarga axloqiy munosabatlarni shakllantirish va muloqot madaniyatini oshirish imkonini bergan;

nutqiy etiketlar o'quv lug'atida izoh va illyustratsiyaga qo'yiladigan talablarni aniqlash orqali nutqiy etiket ifodalovchi vositalarning leksikografik talqini

muammolarini yoritish asosida takomillashtirilganiga doir xulosalari “Ta’lim texnologiyalari” darsligi mazmuniga singdirilgan bo‘lib, ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik tavsiyalari bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining o‘qitish jarayonida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-son buyrug‘iga asosan tasdiqlangan, guvohnoma raqami № 537213). Natijada talabalarni nutqiy etiket me’yorlarini shakllantirish ko‘nikmasini takomillashtirilgan va ularning kasbiy faoliyati davomida uchraydigan muammolarni hal qilish imkoniyatlari kengaytirilgan va nazariy olingan bilimlarni amaliyotga qo‘llash imkoniyatini bergan;

ona tili darslarida nutqiy etiket me’yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishga oid takliflaridan ona tili va ona tili o‘qitish metodikasi fanlarini fan dasturlari va sillobuslarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 5-dekabrda 02/-01-558-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarining etiket me’yorlarini shakllantirish va rivojlantirishdagi kamchiliklarni sezilarli darajada bartaraf etish orqali pedagogik samaradorlikni oshishiga erishilgan;

ona tili darslarida nutqiy etiketlar o‘quv lug‘ati korpusi va uning turlari aloqadorligini aniqlashda nutqiy etiketlar lug‘ati uchun so‘zlikni tanlash mezonlarini aniqlash orqali takomillashtirilganiga doir “Ta’lim texnologiyalari” darsligi mazmuniga singdirilgan bo‘lib, ona tili darslarida ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayonida tadqiqot etishga oid takliflaridan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 5-dekabrda 02/-01-558-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarining kasbiy va hayotiy faoliyati davomida so‘zlikni tanlash mezonlari ko‘nikmasi shakllantirilgan va bu orqali turli xil jarayonlarda axloqiy munosabatlarni shakllantirish hamda muloqot madaniyatiga o‘rgatishning muhim muammolarni hal etish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 xalqaro va 5 ta respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 17 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy jurnallarda, 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, ishning maqsadi, vazifalari va obyekt hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, mavzuga doir nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Nutqiy etiket va uni shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida nutqiy etiket madaniy muloqot va kommunikativ kompetentlikni shakllantirish omili sifatida yurtimiz va xorijiy olimlarning ilmiy nazariy jihatdan o‘rganilishlari tahlili nazariy jihatdan quyidagicha yoritilgan.

“Nutqiy etiket” ya’ni “Politeness” ilmiy atama sifatida G‘arb tilshunosligida 1960-yillardan qo‘llanila boshlandi va alohida soha sifatida shakllandi. Bu sohadagi ilk tadqiqotlar kaliforniyalik Robin Lakoff, amerikalik P.Braun va britaniyalik S.Levinson va G.Lichlarga tegishlidir. Ammo, atama sifatida Irving Goffman (1967) ilk bor “feys” (face) - yuzni yo‘qotish”, “yuzni saqlab qolish” va “uyatli/hijolatli yuzli bo‘lish” kabi iboralarni fanga kiritdi.

Fanda “pragmatik mahorat” (Pragmatic competence) atamasi mavjud bo‘lib, u kognitiv lingvistika bo‘yicha izlanishlar olib borgan ingliz tilshunosi R.Lakoff tomonidan ilgari surilgan nutqiy etiket tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Murojaat birliklari nutqiy etiketning, nutq jarayonining ajralmas va hal qiluvchi bir qismi bo‘lib, u tinglovchining e’tiborini tortibgina qolmay, uni baholash-xarakterlash, ya’ni so‘zlovchining shaxsiy munosabatini ham ifodalash xususiyatiga ega. Ular o‘zida o‘zbek xalqining qadriyatlarini, urf-odatlarini, milliy o‘zligi, shuningdek, o‘zbek nutq madaniyatining nozik tomonlaridan hisoblanadi.

G‘arb tilshunosligida mazkur mavzu birinchi tadqiqotchilari bo‘lmish kaliforniyalik Lakoff, amerikalik Braun va britaniyalik Levinson hamda britaniyalik Lich nazariyalari batafsil o‘rganilib, keyingi avlod izlanuvchilarning ularga bo‘lgan munosabatlari ham ko‘rib chiqilgan. Nutqiy etiket masalalari jahon miqyosida dolzarbligi, tadqiqot natijalari amaliy samaradorligi asoslab berilgan.

G‘arb tilshunosligida Amerika, Yevropa va Rossiya ilmiy manbalari tahlil etildi. Xulosaga ko‘ra, G‘arb madaniyatida (AQSH, Italiya, Ispaniya, Fransiya kabi davlatlarda nutq etiketi negativ (bosim o‘tkazmaslik) hamda sayqallashlarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri fikrni ifoda etish tamoyillari yetakchi ekanligi, Rossiyada nosamimiy nutqiy etiket birliklarini qo‘llash nutqiy etiket qoidalariga zid bo‘lib, pozitiv hurmat (face) ifodalashi, Britaniyada esa nutqni sayqallash, fikrni aniq ifoda etmaslik (mavhumlik), bosim o‘tkazmaslik tamoyillari yetakchilik qilishi, negativ hurmat (face) ifodasi salmoqli darajada ekani ochib beriladi.

I.Goffman nutqiy etiket qoidalariga quyidagilarni kiritadi:

- murojaat so‘z va iboralarini to‘g‘ri qo‘llash;
- shaxslarga ularning jamiyatdagi mavqeyi va yaqinlik darajasiga qarab muomala qilish;
- rasmiy yoki norasmiy nutqni to‘g‘ri va joyida qo‘llash;

muayyan vaziyatlarga bog‘liq til an‘analarini to‘g‘ri tushunish (taklifni qabul qilish yoki rad etish, suhbatni boshlash va tugatish va h.k.).

Nutqiy etiket nazariyotchilaridan biri bo‘lgan R.Lakoff (1973) nutqiy etiketni “jamiyatda rivojlangan yaxshi xulq-atvor shakli” deb ta’riflaydi hamda “insonlar o‘zaro muloqotidagi ziddiyatlarni kamaytirish maqsadida o‘rganilishi zarur mavzu” deb biladi. U o‘zining “What you can do with words: politeness, pragmatics and performatives (So‘z nimalarga qodir: nutqiy etiket, pragmatika va uning ijrochilari) asarida nutqiy etiketning uch prinsipini taklif etadi. Bu tamoyillar quyidagilar:

bosim o‘tkazmang va masofa saqlang;

suhbatdoshga tanlov imkoniyatini bering va hurmat ko‘rsating;

tinglovchilaringizning erkin his qilishlarini ta‘minlang va do‘stona kayfiyat bering.

Lakoffning nutqiy etiket prinsiplari fanda “Pragmatik mahorat” (Pragmatic competence) deb nomlanib, unda quyidagilarni hisobga olgan holda suhbatga kirishish muhimdir: Kim bilan gaplashyapmiz (tenor/personaj); nima haqida gaplashyapmiz (mavzu, soha), qanday tarzda gaplashyapmiz (uslub). Lakoff ilgari surgan ba’zi prinsiplar umuminsoniy xususiyatga ega bo‘lib nafaqat G‘arb, Yevropa jamiyati, balki sharqliklar uchun ham ahamiyatlidir. Xususan, “Tinglovchilaringizni erkin his qilishlarini ta‘minlang va do‘stona kayfiyat bering” prinsipi, eronliklar va o‘zbeklarning nutq etiketiga ham xosdir. Olimning fikrini davom ettirgan holda shuni aytish mumkinki, bu prinsipga nomlari zikr etilgan millatlarda nafaqat do‘stona yoki norasmiy munosabatlarda, balki rasmiy munosabatlarda ham amal qilinadi. Boshqa ba’zi madaniyatlarda, masalan, koreys yoki yapon madaniyati uchun Lakoffning “Bosim o‘tkazmang va masofa saqlang” prinsipi mos keladi.

Bir so‘z bilan aytganda, Lakoffning uch prinsipi alohida olib qaralganda turli xalqlar nutq etiketida turli darajada namoyon bo‘ladi.

H.Turdiyeva etiketning bir necha turlarini ajratadi:

Sayqallash etiketi: “Inglizlarda qalb yo‘q, uning o‘rniga “yumshatish, sayqal berish” bor degan tushuncha mavjud. Oxirgi 50 yillar ichida muloqot madaniyati biroz o‘zgargan bo‘lsa-da, britaniyaliklar hamon “yumshatish uslubi”ga amal qiladilar. Inglizlarda biror bir fojeali, halokatli vaziyatlar sodir bo‘lganda ham bunga o‘ta bosiqlik bilan munosabat bildirish holati kuzatiladi. Masalan, tabiiy ofat hisoblangan bo‘ron sodir bo‘lib, uy-joylar, bino va daraxtlarga jiddiy zarar yoki shikast etganida ham, ular bunga “a bit blowy” – “ozgina shamol turdi” deb izoh beradilar. Inglizlar bilan muloqotga kirishganda, juda ziyrak bo‘lish talab etiladi. Fikrimizni Jorj Mayks ta’biri bilan ifodalaydigan bo‘lsak, ingliz kishisi – “Bugun biroz yomg‘irli, sal kechroq oldingizga borarman.” deb aytsa, aslida – “Dahshat bo‘ronli jala yog‘yapti, men bugun uydan hech qayerga chiqmoqchi emasman, chiqishim mumkin, qachonki uyimga o‘t ketib qolsa” degan ma’noga to‘g‘ri keladi. “Your english is somewhat unorthodox”- (“Sizning ingliz tilingiz biroz noodatiy ekan”) jumlasida aslida “Sizning ingliz tili darajangiz bir tiyinga qimmat ekan” ma’nosida qo‘llaniladi.

Ayblamaslik etiketi: Bu etiketning mohiyatini quyidagi hayotiy vaziyatdagi holat bilan izohlash mumkin: Kimningdir oyog‘ini bosib olib uzr so‘ralganda, “No harm done!” (Zarari yo‘q), “I am sure it’s my fault” (Albatta bu mening aybim.) deb

javob beradilar. Bu takallufli javobning asl konnotativ ma'nosi quyidagicha: "Bu sizning aybingiz, buni ikkimiz ham bilamiz."

Daxlsizlik etiketi: Bu etiket inglizlar tomonidan juda keng qo'llaniladigan, mashhur hodisa hisoblanadi. Buning asosida "Minding one's own business" – "Bir birining hayotiga/tanloviga aralashmaslik" tushunchasi turadi. Fikrimizcha, birovning shaxsiy hayotiga daxl qilmaslik holati yevropaliklarning ko'pchiligiga xos jihat bo'lib, o'zbek xalqida aksincha, birovning hayotiga befarq bo'lmaslik, loqaydlikka yo'l qo'ymaslik, aksincha, qo'ni-qo'shni, mahalladosh insonlarning yaxshi va yomon kunlarida ularni qo'llab quvvatlash tamoyili kuchli.

Ichki hissiyotni yashirish etiketi. Tub britaniyaliklar hech qachon asl hissiyotlarini oshkor etmaydilar. Masalan, "Ishlar qanday ketyapti?" degan savolga "I'm in a bit of a pickle" - "Vaziyat ozgina jiddiy" deb javob beriladi. Aslida, vaziyat o'ta qiyin va jiddiy ekanligi anglashiladi. Aksariyat holatlarda insonlar cherkov kabi ibodatxonalarga borib, o'z haqiqiy ahvolini rohiblarga so'zlashlari kuzatiladi. O'zbek va eron xalqlarida esa bu savolga javob tinglovchi va so'zlovchining yaqinlik darajasidan kelib chiqib beriladi.

Nosamimiy (nazarda tutilmagan) mehmondo'stlik etiketi. Mehmondo'stlik an'anasi italyanlar, ispanlar, amerikaliklar va ba'zi boshqa xalqlar madaniyatida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u o'zbek va sharq xalqlari madaniyatidan tubdan farq qiladi. Xususan, "You must come for dinner" – "Kechki ovqatga kelishingiz kerak" degan taklif mazkur xalqlarda to'g'ri taklif deb qabul qilinadi. Britaniyada esa bunday taklif shunchaki mulozamat uchun bildiriladi.

Demak, etiket ifodalovchi vositalar semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Munosabatga kirishish bilan bog'liq nutqiy etiketlar – salomlashish, so'rashish, murojaat qilish, tanishish va b.

2. Munosabatni mustahkamlash bilan bog'liq nutqiy etiketlar – iltimos qilish, taklif, nasihat va boshqalar.

3. Tavoze bilan bog'liq nutqiy etiketlar – minnatdorchilik, uzr so'rash.

4. Tilak bildirish bilan bog'liq nutqiy etiketlar – tabriklash, olqishlash.

5. Iltifot bilan bog'liq nutqiy etiketlar – iltifot, ko'ngil so'rash, hamdardlik bildirish.

6. Xayrlashish bilan bog'liq nutqiy etiketlar – ko'rishguncha, xayr va bosqalar.

Nutqiy etiketlar lug'ati korpusi materiali alohida so'zlik emas, balki o'zaro ichki munosabatga asoslangan mustaqil paradigmalardan tashkil topadi. Lug'atga so'z tanlash, birinchidan, hajm, xronologik chegaralar va manbalarga bo'lgan talabni qoniqtirishi, ikkinchidan, qator tarkibidagi nutqiy etiket birliklarining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, formal-grammatik shakllari borasida chegaralarni qat'iy belgilab olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan nutqiy etiketlar lug'ati uchun so'z tanlash deganda quyidagi uch omilni e'tiborga olishni talab qiladi:

lug'at maqsadiga mos birliklarni aniqlash;

so'zlikni shakllantirish;

lug'at so'zligidan joy olishi mumkin bo'lgan leksik yoki frazeologik birlikni tanlash.

Ta'lim oluvchi mansub bo'lgan ta'lim bosqichi darsliklari, xususan, ona tili, adabiyot, tarix, odobnoma, nutq o'stirishga qaratilgan darsliklar, shuningdek, qo'shimcha o'qish uchun tavsiya etilgan ijodi o'rganilayotgan yozuvchi va shoirlarning asarlarida ishlatilgan etiketni ifodalovchi so'zlar va iboralar birinchilardan bo'lib, lug'at so'zligi tarkibidan joy oladi. Biroq lug'at so'zligini shakllantirishda faqat darslikka tayanish bilan cheklanib bo'lmaydi. Aniqrog'i, bu yerda so'z birgina leksemani tanlash haqida emas, unga ma'nodosh bo'lgan birliklardan tuzilgan paradigma a'zolarini aniqlash haqida ketadi. Bu jarayon bilan bog'liq eng katta muammo qator tarkibidan qat'iy joy oladigan so'zlarni saralash.

Ma'lumki, tilda nutqiy etiketlar hosil bo'lishining bir necha yo'llari mavjud. Xususan, ichki imkoniyatlar – dialektizmlarning adabiy tilga o'tishi, eskirgan so'zlarning qayta iste'molga kirishi, yangi so'z yasalishi, so'z ma'nolari taraqqiyoti (ko'chma ma'nolar);

Tashqi imkoniyatlar – so'z o'zlashtirish asosida nutqiy etiket birliklari boyib boraveradi. Akademik lug'atlarda ushbu asoslarga ko'ra paydo bo'lgan barcha etiket birliklari haqida so'z borishi lug'atning mukammalligidan darak bersa, o'quv lug'atlarda ulardan eng zaruri va eng keraklisi tanlab olingani lug'atning qiymatini belgilaydi. Lug'at so'zligida eskirgan so'zlar, dialektizmlar, o'zlashmalar, grammatik shakllardan faqat maqsadga muvofiqlari saralab olinishi lozim.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Talabalarda nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish”** deb nomlangan bo'lib ona tili darslarida talabalarining nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishga bag'ishlangan va talabalarining nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan bo'lib, uning mazmuni quyidagi ko'rinishda bayon etilgan.

Ba'zan maktab darsliklarida berilgan yoki mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan tarixiy asar matnida ishlatilgan etiket birliklari foydalanuvchining yoshiga mos bo'lmasligi yoki faol nutqiga xos bo'lmasligi ham mumkin. Shu bois arxaizmlar va istorizmlarni lug'atga kiritishda ularning har biriga individual yondashish, har bir so'zning o'z davridagi va hozirgi qiymatini hisobga olish, shu bilan birga har bir ma'nodoshiga ega bo'lgan birlikning talabaning yoshiga mosligi, pedagogik-psixologik jihatdan maqsadga muvofiqligiga ham diqqat qilishga to'g'ri keladi. Ushbu so'zlar bugungi kunda tarixiy so'zga aylangan bo'lib, ularning til leksikasining tarixiy qatlamlarini ko'rsatish maqsadida akademik lug'atlar, katta lug'atlarda berilishi maqsadga muvofiq. Talabaning yoshi, lug'at hajmiga qo'yiladigan talablar o'quv sinonimik lug'at so'zligi tarkibidan har qanday eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan etiketlarning joy olishiga yo'l qo'ymaydi. Umuman, hatto akademik lug'atlarda ham eskirgan nutqiy etiketlarni lug'atda berishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Nutqiy etiketlar o'quv lug'ati so'zligidan bugungi kunda o'z ma'nodoshi bilan muqobil bo'la oladigan a'zolarigina joy oladi.

Etiketlar o'quv lug'ati uchun so'z tanlashga doir yana bir muammo o'zlashma so'zlarni tanlash bilan bog'liq. Ma'lumki, nutqiy etiketlar paydo bo'lishining eng unumdor yo'llaridan biri tashqi manba – chetdan so'z o'zlashtirish. O'zlashma so'zlarni lug'atga kiritish, xarakterlash va izohlashda ularning semantik strukturasi, ma'no doirasi, so'z yasash va boshqa so'zlar bilan birikish xususiyatlarini ham

e'tiborga olish zarur. Matn asosida ishlab chiqarish maxsus metodikasini ishlab chiqish jarayonida, tarixiy va arxaik soʻzlarning oʻrni, hisobot didaktik ahamiyati va talabalarga tushunarli boʻlishi uchun turli metodlarni qoʻllash kerak. Taklif qilinayotgan asosiy metodikamizni bosqichma-bosqich yoritamiz, bu 6 bosqichdan iborat boʻladi (1-rasm):

tashkiliy qism;

etiket soʻzlar qatnashgan terminlar;

arxaik va tarixiy soʻzlarni farqi;

mavzuni tahlil qilish va asosiy soʻzlarni ajratish;

amaliy tajriba va qiyosiy tahlil;

natija.

Bu metodikani texnologik xaritada quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

1-jadval

Arxaik yoki tarixiy soʻzlar oʻrgatishning texnologik xaritasi

Arxaik yoki tarixiy soʻzlar oʻrgatishning texnologik xaritasi		
1-bosqich	Tashkiliy qism	Mavzu haqida tushunchalar berish va mavzuni oʻrganishda qaysi adabiyotlardan foydalanish toʻgʻrisida maʼlumotlar berish.
2-bosqich	Etiket soʻzlar qatnashgan matnlar	Etiket soʻzlar qatnashgan gaplar tuzish hamda etiket soʻzlar qatnashgan matnlar tayyorlash va boshqalar
3-bosqich	Arxaik va tarixiy soʻzlarni farqi	Tarixiy soʻzlarni hozirgi sinonimlarini izlab topish
4-bosqich	Mavzuni tahlil qilish va asosiy soʻzlarni ajratish	Badiiy matnlarda etiket soʻzlarni ishlatilishi, qoʻllanilishi va tarixiy manbalarda qoʻllanilishiga oid maʼlumotlar keltirish.
5-bosqich	Amaliy tajriba va qiyosiy tahlil	Talabalarni mustaqil ravishda tarixiy va arxaik soʻzlarni ajrata olish hamda ularni hozirgi zamon soʻz matnlaridagi oʻrinlaridagi maʼnolarini bilishi va boshqalar
6-bosqich	Natija	Savol javob, mavzuga oid turli anketa savollari, matnli masalalar va test savollari orqali ularni baholash

Oʻzlashma soʻzlar koʻp hollarda tilda mavjud nutqiy etiketlarning sinonimining paydo boʻlishiga olib keladi.

Ona tili darslarida nutqiy etiket meʼyorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish modeli 4 ta komponentli blokdan iborat boʻlib, ular quyidagilardan iborat (1- rasm):

Maqasad bloki - Ona tili darslarida nutqiy etiket meʼyorlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat;

Mazmun bloki - Talabalarning nutqiy etiket munosabatlarni shakllantirish va muloqot madaniyatiga o'rgatishning muhim vositalaridan biri bo'lgan nutqiy etiketlar o'quv izohli lug'atining tuzish tamoyillarini aniqlash;

Talabalarda etiket konsepti va uning o'zbek muloqot madaniyati tarixida tutgan o'rnini yoritish nutqiy birliklarni semantik jihatdan tasnif qilish asosida nutqiy etiket bildiruvchi vositalari tarkibini takomillashtirish;

Talabalarda nutqiy etiket me'yorlarini shakllantirishda nutqiy etiketlar o'quv lug'atida qo'yiladigan talablarni aniqlash va nutqiy etiket talqinidagi muammolarini bartaraf etish orqali rivojlantirish.

Jarayon bloki - talabalarni nutqiy etiket me'yorlarini shakllantiruvchi metodlar, vositalar va darsning shakllarini o'z ichiga oladi.

O'qituvchi talabani faolligi bilan birga yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlashga o'rgatadi. O'qituvchi faoliyati o'z o'rnini talaba faolligiga bo'shatib beradi, bu jarayonda o'qituvchining vazifasi talabani tashabbuskorligi uchun sharoit yaratishdan iborat bo'ladi. O'qituvchi barcha yangi bilimlarning asosiy ma'lumotlarini beruvchi manba, axborot tashuvchisi rovidan voz kechadi va o'quv jarayonida yordamchi, ma'lumot beruvchi vositachi bo'lib qoladi.

Ta'limning interaktiv shakli modeli interfaol o'qitish usullari va interfaol texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Interfaol ta'limning asosiy metodologik tamoyillari:

dars mashg'ulotlaridagi atamalarini, o'quv, kasbiy lug'atni, an'anaviy tushunchalarni sinchkovlik bilan tanlash;

talabalar turli rol funksiyalarini bajaradigan boshqaruv va kasbiy faoliyatning aniq amaliy misollarini har tomonlama tahlil qilish;

barcha talabalar o'rtasidagi uzluksiz muloqotni vizual qo'llab-quvvatlash;

har bir darsda talabalardan biri tashabbusni o'z qo'lga oladi va ta'lim muammosini muhokama qilishga yo'naltiradi (faqat yaxshi o'qituvchi yordam beradi);

texnik ta'lim vositalaridan, jumladan, jadvallar, slaydlar, filmlar, videofilmlar, videokliplar, video jihozlar, o'quv materialini illyustrasiyalovchi vositalardan faol foydalanish;

o'qituvchi tomonidan faol guruh ichidagi o'zaro hamkorlikni doimiy qo'llab-quvvatlash, ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlardagi keskinlikni bartaraf etish, "o'tkir" qadamlar va individual talabalarni o'qitishning interfaol usullarining turlari

1. Ekspress munozaralar metodi.

Har qanday masala bo'yicha Ekspress munozaralar muhokamasi o'rganilayotgan mavzuni o'rganish jarayonida uning mohiyatini shunchaki tushunish emas balki uning amaliyotga tadbiiq qilish darajasida tushunish yoki eng samarali o'zaro tushunishga erishishga qaratilgan bo'lib, guruhdagi muhokamalar va savol javoblar o'rganilayotgan materialni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Har qanday ekspress munozaralar muhokamasining birinchi bosqichida talabalarga aniq savol beriladi va ma'lum vaqt ajratiladi, bu vaqt davomida talabalar asoslantirilgan va to'liq javob tayyorlashlari kerak. O'qituvchi guruh muhokamasini o'tkazish uchun quyidagi ma'lum qoidalarni o'rnatishi mumkin:

munozara uchun ma'lum doirada mavzuga oid fikr bildiriladi va ushbu fikrdagi kamida 5 ta xatoni topishni guruhlardan so'raydi;

o'qituvchi o'zi uchun umumiy fikrni shakllantirish algoritmini kiritadi;
guruh muhokamasiga har bir guruhda guruh rahbarini tayinlaydi va h.k.

Guruh muhokamasining ikkinchi bosqichida o'qituvchi bilan birgalikda guruh qarori qabul qilinadi.

Guruh muhokamasining bir turi muammoni bo'lishish, muammoni ko'rsatish, tajriba, yutuqlar bilan tanishish maqsadida o'tkaziladigan munozarali suhbatidir.

2. Davra suhbatlari metodi.

Davra suhbatlari guruh savol-javob muhokamalarini tashkil etish shakllaridan biri bo'lib, unda har ikki tomondan 15-25 kishi ishtirok etadi; davra suhbatlari davomida barcha ishtirokchilar o'rtasida o'zaro fikr almashiladi. Ushbu usulning asosiy maqsadi - barcha talabalarni bir-biri bilan tenglik asosida jarayonni muhokama qilish uchun taklif qilingan masalalarni (mavzularni) erkin, tartibga solinmagan muhokama qilishdan iborat. Davra suhbatlari davomida ishtirokchilar aylana bo'ylab joylashadilar, muloqot jarayoni "ko'zdan-ko'z" shaklida bo'lib o'tadi, bu esa faollikni oshirishga, ma'ruzachilar sonini ko'paytirishga, har bir ishtirokchining munozarada faol ishtirok etishiga imkon beradi, og'zaki bo'lmagan muloqot vositalarini rag'batlantiradi. O'qituvchi ham guruhning teng huquqli a'zosi sifatida umumiy davraga joylashib olishi mumkin, bu jarayonga rasmiy muhit yaratadi.

3. Ijodiy vazifa metodi.

Ijodiy vazifa - har qanday interfaol ta'lim shaklining mazmuni ijodiy vazifani bajarish talabidan ilgari olingan ma'lumotlarni o'qituvchi tomonidan quyidagicha belgilangan shaklda takrorlashni talab qiladi:

amaliyotdan va olingan tajribalardan misollar tanlash;

muayyan masala (vaziyat) bo'yicha material tanlash;

rolli (vaziyatli) o'yinda qatnashish va hokazo.

4. Loyihaning ommaviy taqdimoti.

